



UZBEKISTAN - SHANGHAI COOPERATION ORGANIZATION: MUTUAL COOPERATION FOR PEACE

Dilmurodov Dilmurod Dilshodjon ugli¹

Imamov Javoxir Fayozovich²

University of World Economy and Diplomacy

KEYWORDS

Shanghai Cooperation Organization, "Shanghai Spirit" (Shanxay ruhi), terrorism, UN, security

ABSTRACT

The Shanghai Cooperation Organization is a unique political structure that has become an integral part of the world from a global, political and economic point of view for more than 20 years. Of course, the location of this organization indicates a lot. It should be noted that the territory of the member states of the Shanghai Cooperation Organization is more than 34 million km², which is 60% of the territory of Eurasia. Its population exceeds 3.4 billion, which means almost half of humanity. The gross domestic product of the member states of the organization is 22% of the world economy.

This article describes in detail the work carried out during Uzbekistan's presidency of the Shanghai Cooperation Organization, and the achievements made at the end of the SCO Samarkand Summit.

2181-2675/© 2022 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.7153443

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Student of the Faculty of International Relations, University of World Economy and Diplomacy, Uzbekistan (dilmurodov3033@gmail.com)

² Student of the Faculty of International Economics and Management, University of World Economy and Diplomacy, Uzbekistan (imamovjavoxir@gmail.com)

O‘ZBEKISTON – SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI: TINCHLIK YO‘LIDAGI O‘ZARO HAMKORLIK

KALIT SO‘ZLAR:

Shanxay hamkorlik tashkiloti, “Shanxay ruhi”, terrorizm, BMT, xavfsizlik

ANNOTATSIYA

Shanxay hamkorlik tashkiloti 20 yildan ortiq vaqt davomida global, siyosiy va iqtisodiy nuqtai nazaridan dunyoning ajralmas qismiga aylangan noyob siyosiy tuzilma hisoblanadi. Albatta, mazkur tashkilotning makoni ko‘p narsadan dalolat beradi. Shuni alohida qayt etish lozimki, Shanxay hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlatlar hududi 34 mln km² dan ortiq, bu Yevrosiyo hududining 60%ini tashkil qiladi. Aholisi soni esa 3.4 milliarddan oshadi, bu esa insoniyatning deyarli yarmi degani. Tashkilotga a‘zo davlatlarning yalpi ichki mahsulotlari hajmi butun dunyo iqtisodining 22%ini tashkil etadi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raisligi davridagi amalga oshirilgan ishlar, SHHT Samarqand sammitining yakunlari bo‘yicha erishilgan yutuqlar haqida batafsil bayon etilgan.

Mamlakatimizning Shanxay hamkorlik tashkilotiga raisligi jahon miqyosida shiddatli jarayonlar kechayotgan o‘ziga xos “tarixiy evrilish” pallasiga to‘g‘ri keldi. Bu haqida davlatimiz rahbarining joriy yilning 12-sentabr kuni e‘lon qilingan “Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o‘zaro bog‘liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik” nomli maqolasida uchratishimiz mumkin.

Qayd etish lozimki, O‘zbekiston Respublikasi Shanxay hamkorlik tashkilotiga raisligi davomida 80 dan ortiq turli darajadagi yirik tadbirlar o‘tkazildi. Bundan tashqari, ushbu davrda nafaqat xavfsizlik masalalari, balki gumanitar sohadagi hamkorlikni kengaytirishga ham alohida e‘tibor qaratildi.

Joriy yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida Shanxay hamkorlik tashkilotining sammitida tashkilotga a‘zo davlatlar, kuzatuvchi davlatlar rahbarlari hamda taklif etilgan prezidentlar ishtirok etdi.

Shunday qilib, 16-sentabr kuni Kongress markazida ikkita uchrashuv bo‘lib o‘tdi: tor doirada, unda faqat SHHTga a‘zo davlatlar rahbarlari: O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jomart To‘qayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin, Tojikiston Prezidenti Imomali Rahmon, Hindiston Bosh vaziri Narendra Modi, Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin hamda kengaytirilgan majlisda taklif etilgan rahbarlar ham ishtirok etdi.

Sammit yakunlari bo‘yicha keng ko‘lamli hujjatlar to‘plami qabul qilindi va Samarqand deklaratsiyasi imzolandi hamda uchrashuv davomida davlat rahbarlari ko‘plab muhim bayonotlar bilan chiqishdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning joriy yilning 16-sentabr kuni o‘tkazilgan

Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammitida soʻzlagan nutqida Oʻzbekistonning SHHTga raislik davrida tashkilot doirasida amaliy hamkorlikni faollashtirish, uning xalqaro nufuzini oshirishga intilgani alohida taʼkidlanganligini koʻrishimiz mumkin.

Bundan tashqari, iqlim oʻzgarishi, suv va oziq-ovqat xavfsizligi inqirozi kabi global muammolarni barqaror rivojlanish uchun mamlakatlar oldida turgan katta xavf ekanligi qayd etildi.

Sammit davomida Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin jahon iqtisodiyoti va siyosatidagi oʻzgarishlarni hozirgi vaqtda qaytarib boʻlmaydigan deb taʼkidladi. Vladimir Putin “Hech kim koʻrmagan oʻrnatilgan qoidalarga emas, balki xalqaro huquq tamoyillari va BMT Nizomi asosida oʻzaro taʼsir qiladigan yangi kuch markazlari paydo boʻlmoqda”, - deya bayonot berdi.

U terrorizm va ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi va noqonuniy qurolli guruhlariga qarshi kurash, shuningdek, nizolarni tinch yoʻl bilan hal etishga koʻmaklashish, jumladan, Afgʻonistonda ham ustuvor yoʻnalishlardan biri boʻlganini va shunday boʻlib qolishini taʼkidladi. Putinning taʼkidlashicha, hozirda iqtisodiy hamkorlik mustahkamlanmoqda, milliy valyutadagi toʻlovlar ulushi ham oshib bormoqda.

Bundan tashqari, Putin Belarus Respublikasining Shanxay hamkorlik tashkilotiga kirishini qoʻllab-quvvatladi. Shu jumladan, Rossiya rahbari SHHT qoshida sport tashkilotlari assotsiatsiyasini tashkil etishni taklif qildi va tashkilot aʼzolari yaqin kelajakda turizm va muzey ishi sohasida shartnomalar imzolashini maʼlum qildi.

Mazkur tadbir davomida Qozogʻiston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toʻqayev oʻz nutqida tashkilotning xalqaro nufuzi oshib borayotganligini alohida qayd etdi. Hozirgi tahlikali dunyoda oʻzaro ishonch, teng huquqli va ochiq muloqotga asoslangan, oʻziga xos noyob “Shanxay ruhi”ni mustahkamlash nihoyatda muhimligi bilan ahamiyatlidir. Albatta, ushbu tashkilot faoliyati samaradorligini oshirish va turli sohalarda koʻp tomonlama hamkorlikni rivojlantirish barcha ishtirokchi davlatlar manfaatlariga mos keladi. Tashkilot faoliyatini yanada takomillashtirishni davom ettirish, SHHT makonida va undan tashqarida asosiy tendensiyalarni prognozlashni kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Toʻqayev oʻz chiqishida SHHTning asosiy ustuvor yoʻnalishi mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash boʻlib qolayotganligini alohida taʼkidladi.

Pokiston Bosh vaziri Shahboz Sharif SHHTga aʼzo davlatlarni Afgʻonistondagi vaziyatni hisobga olgan holda Pokistonda uzoq muddatli tinchlikni taʼminlash uchun birgalikda yechim topishga chaqirdi.

U oʻz chiqishida “Afgʻoniston oʻz xalqiga munosib hayotni taʼminlashi uchun taʼlim, sogʻliqni saqlash, iqtisodiyot va boshqa sohalarda olib borayotgan barcha ijobiy tashabbuslarni birgalikda qoʻllab-quvvatlashimiz kerak. Afgʻoniston muammolariga eʼtibor bermaslik juda katta xato boʻladi”, - deb taʼkidlab oʻtdi.

Bosh vazir jahon hamjamiyatidan Afgʻoniston iqtisodiyotini mustahkamlash va mamlakat barqarorligini taʼminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida uning muzlatilgan aktivlariga kirishni taʼminlash borasidagi saʼy-harakatlarini qoʻllab-quvvatlashni soʻradi.

Pokiston rahbari, shuningdek, SHHT davlatlari rahbarlariga yaqinda yuz bergan suv toshqini vaqtida mamlakatga ko'rsatilgan yordam uchun minnatdorlik bildirdi.

Umuman olganda, COVID-19 pandemiyasi gumanitar hamkorlikni sekinlashtirdi. Albatta, SHHTga a'zo barcha davlatlar uni rivojlantirish va boyitishdan manfaatdor. SHHTning gumanitar makonida jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi haqiqatan ham beqiyos bo'lgan eng buyuk mutafakkirlar, atoqli olimlar va madaniyat arboblarni dunyoga ochib berdi. YuNESKOning mingdan ortiq Butunjahon merosi obyektlaridan deyarli har sakkizinchi biri SHHT hududida joylashgan. Tashkilot doirasida turli madaniyat va sivilizatsiyalarning barqaror muloqoti yo'lga qo'yilgan. Tez orada SHHT muzeyining tashkil etilishi, SHHT parki va SHHT san'at galereyasining ochilishi kutilmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Samarqand shahrida SHHT turizm universitetini ochishni rejalashtirmoqda, Rossiya SHHT sport o'yinlarini muntazam o'tkazishni taklif qilmoqda. Xalqaro e'tirofqa sazovor bo'lgan SHHT marafoni gumanitar sohadagi hamkorlikning ajralmas qismiga aylandi. Shanxay hamkorlik tashkilotining turistik va madaniy poytaxti har yili e'lon qilinishi SHHTga a'zo davlatlarning xalqlarning boy madaniy-tarixiy merosi va sayyohlik salohiyatini yanada targ'ib qilish uchun istiqbolli bo'ladi. 2023-yil SHHTda Turizm yili deb e'lon qilinishi kutilmoqda. Bunday qadam pandemiya davrida katta zarar ko'rgan turizm sohasiga kuchli yordam bo'lib, SHHT hududidagi shahar va tumanlarning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shanxay hamkorlik tashkiloti Samarqand sammitining eng katta yutug'i bu tashkilotning ochiqlik va bloklarga qo'shilmaslik tamoyillariga sodiq ekanligini butun dunyoga yana bir bor eslatib o'tilganligida bo'ldi. Aynan shu tamoyil tufayli SHHTning ishtirokchi davlatlar orasida manfaatli munosabatlarni mustahkamlab, xalqaro hamkorlikni muvaffaqiyatli tarzda chuqurlashtirishga erishayotganligini qayd etishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Shanxay hamkorlik tashkilotining Samarqand sammiti: o'zaro bog'liqlikdagi dunyoda muloqot va hamkorlik" sarlavhali maqolasi. (<https://president.uz/uz/lists/view/5495>)
2. O'zbekiston xavfsizlik yo'lidagi Samarqand birdamligi tashabbusini ilgari surdi. (<https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/16/samarkand-initiative/>)